

“Tasdiqlayman”

**O‘zbekiston texnik jihatdan
tartibga solish agentligi direktori**

A.R. Jumanazarov

“13” 02 2025-y.



**O‘ZBEKISTON ILMIY-SINOV VA SIFAT NAZORATI MARKAZI DM
ILMIY KENGASHI TO‘G‘RISIDA
NIZOM**

Toshkent – 2025-yil

Mundarija

1. Umumiy qoidalar
2. Ilmiy Kengashning tashkiliy tuzilmasi.
3. Ilmiy kengash a'zolarining huquq va majburiyatlari
4. Ilmiy kengashning vazifalari
5. Ilmiy kengashning vakolatlari
6. Ilmiy kengash faoliyatini tashkil etish
7. Yig'ilishlarni o'tkazish tartibi va reglamenti
8. Ilmiy Kengashning hujjatlarini saqlanish shartlari.
9. Yakuniy qoidalar
10. Ilmiy Kengash faoliyatini tashkil qilish va tugatish

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Standartlashtirish to'g'risida", "Metrologiya to'g'risida" va "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida muvofiqlikni baholash tizimini yanada takomillashtirish va sinov laboratoriyalari kompleksini rivojlantirish to'g'risida"gi PQ-4419-sonli qarorlari va boshqa qonunchilik hujjatlari asosida ishlab chiqilgan.

1.2. O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati davlat muassasasi (keyingi o'rinlarda UzTest DM)ning Ilmiy Kengashi (keyingi o'rinlarda - Kengash) UzTest DM ning kollegial organi bo'lib jamoatchilik asosida tashkil qilinadi.

1.3. Kengashning faoliyat tartibi va vakolatlari mazkur Nizom bilan belgilanadi.

1.4. Kengashi faoliyati oshkoralik, jamoaviy muhokama, qarorlar ijrosi ustidan nazorat va xodimlar oldidagi javobgarlik prinsiplariga asoslanadi.

1.6. Kengashining o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari Kengash a'zolari uchun majburiy xarakterga ega.

2. ILMIY KENGASHNING TASHKILY TUZILMASI.

2.1. Kengash "UzTest" DM huzurida jamoatchilik asosida tashkil qilingan bo'lib, direktor (kengash raisi) faoliyatning asosiy yo'nalishlarini muvofiqlashtiruvchi uning o'rinbosarlari (lavozimiga ko'ra), tashkilotning tarkibiy bo'linmalari rahbarlari, Fanlar akademiyasi vakillari, shuningdek, turdosh ilmiy-tadqiqot institutlarida va tashkilotlarda ishlovchi yetakchi olimlar, malakali mutaxassislardan iborat tarkibda tuziladi.

2.2. Kengashning shaxsiy va son tarkibi "UzTest" DM direktorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi. Kengash a'zolari soni 11 nafardan kam bo'lmagan miqdorda belgilanib, kamida uchdan ikki qismi xozir bo'lganda vakolatli hisoblanadi.

2.3. Kengash a'zolarining kamida 30 foizini vazirlik, idora yoki ularning tarkibiga kiruvchi tashkilotlar xodimlari bo'lmagan va ular bilan konfedsionallik to'g'risida shartnomalar tuziladigan ilmiy darajaga ega bo'lgan mutaxassislar bo'lishi lozim.

2.4. Tezkor vazifalarni samarali ko'rib chiqish va hal etish hamda zaruratga ko'ra yangi istiqbolli vazifalarni aniqlash uchun kengashning kengaytirilgan majlislariga taklif qilingan ekspertlar (faoliyat yo'nalishlari va sohalari bo'yicha) sifatida yirik ishlab chiqarish korxonalari va kompaniyalari rahbarlari, Agentlik mutaxassislari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yetakchi olimlari taklif etilishi mumkin.

2.5. "UzTest" DM direktori bir vaqtning o'zida Kengash raisi hisoblanadi.

2.6. "UzTest" DM Kengash raisining tavsiyasiga binoan Kengash raisining o'rinbosari (keyingi o'rinlarda - rais o'rinbosari) "UzTest" DM Kengashi a'zolari tomonidan saylanadi.

2.5. Kengashning kotibi "UzTest" DM tuzilmasidagi ilmiy hodim lavozimiga qabul qilingan mas'ul shaxs hisoblanadi.

3. ILMIY KENGASH A'ZOLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Kengashga umumiy rahbarlikni Kengash raisi amalga oshiradi.

3.2. Kengash faoliyatini Kengashning ish yuritish uchun mas'ul hodimi bo'lgan Bosh ilmiy hodim ta'minlaydi, Kengash uchun materiallar tayyorlaydi. Kengash va Kengash raisi va uning o'rinbosarining ko'rsatmalarini bajaradi.

3.3. Kengashning joriy faoliyati "UzTest" DM faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha tuzilgan doimiy komissiyalar, shuningdek muayyan muammolarni hal qilish uchun tuzilgan vaqtinchalik komissiyalar va ishchi guruhlar tomonidan amalga oshiriladi.

Kengash raisi

3.4. Kengash raisi - "UzTest" DM direktori Kengashni boshqaradi va doimiy ravishda o'z vazifalarini bajaradi.

3.5. Kengash raisi:

- Kengash ishini tashkil etadi va faoliyatiga rahbarlik qiladi;
- Kengash a'zolarining tarkibini tasdiqlaydi;
- Kengash a'zolarining majburiyatlarini belgilaydi;
- Kengashning ish rejasi va faoliyatini tasdiqlaydi;
- navbatdagi va navbatdan tashqari yig'ilishni chaqirish va o'tkazish muddatlari to'g'risida qaror qabul qiladi;
- rejalashtirilgan majlis kun tartibini, yig'ilishda ko'rib chiqish uchun tayyorlangan zarur ishchi materiallarni tasdiqlaydi;
- Kengash majlisini o'tkazadi;
- Kengash tomonidan qabul qilingan qarorlarning bajarilishini tashkil etadi va nazorat qiladi;
- qabul qilingan qarorlarning bajarilishi haqida Kengashga xabar beradi;
- faoliyat hisobotini tayyorlashni muvofiqlashtiradi;
- Kengash a'zolariga muassasa direktori sifatida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida (yiliga kamida bir marta hisobot beradi);
- Kengash a'zolarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi;
- uchinchi tomon tashkilotlari va davlat boshqaruv organlari bilan hamkorlikni tashkil etadi;
- uchrashuvlar, qarorlar va boshqa hujjatlarni imzolaydi;
- amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq unga yuklatilgan boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

3.6. Kengash raisi bo'lmagan taqdirda uning o'rinbosari kengash faoliyatiga rahbarlik qiladi.

3.7. Rais o'rinbosari Kengash raisining tavsiyasiga binoan Kengashning birinchi majlisida ochiq ovoz berish yo'li bilan kengash a'zolari orasidan saylanadi. Qoida tariqasida, "UzTest" DM direktorining birinchi o'rinbosari (ilmiy darajaga ega bo'lsa) rais o'rinbosari hisoblanadi.

3.7. Rais o'rinbosari rais yo'qligida ilmiy kengash faoliyatiga tezkor rahbarlik qiladi va uning vazifalarini bajaradi.

Ilmiy kengash kotibi

3.8. Kotibning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Kengash ish rejasini ishlab chiqish va uning bajarilishini nazorat qilish;
- Kengash a'zolari va taklif etilgan shaxslarning majlislariga qatnashishni tashkil etish;

- yig'ilishga taklif etilgan va tashrif buyurganlarni ro'yxatga olish, Kengashda ishtirok etish;
- yig'ilishlar kun tartibini shakllantirish va Kengash raisiga tasdiqlash uchun taqdim etish;
- Kengash majlisi kun tartibi masalalari bo'yicha qaror materiallari va loyihalarini tayyorlashni nazorat qilish va ularni Kengash a'zolariga o'z vaqtida yetkazishni ta'minlash;
- Kengash yig'ilishining bayonnomalarini yuritish, qarorlarni rasmiylashtirish va ko'paytirish;
- Kengash ishini yuritish, nomenklaturaga muvofiq ishlarni yuritish va saqlash;
- Kengashda ko'rib chiqiladigan masalalar bo'yicha ariza va materiallarni qabul qilish;
- “UzTest” DM ning tegishli bo'linmalari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- Kengash majlislarini tashkiliy va texnik jihatdan ta'minlash;
- Kengash tomonidan qabul qilingan qarorlarning bajarilishini nazorat qilish;
- Kengashning yillik ish rejasining bajarilishi to'g'risida hisobot tayyorlash.

3.9. Kotib yo'qligi davrida Kengash raisining qarori bilan o'z vazifalarini vaqtincha bajarish boshqa nomzodga yuklatilishi mumkin.

Kengashning har bir a'zosi:

- munozarada qatnashish, yig'ilishda muhokama qilingan masalalar mohiyati bo'yicha takliflar, sharhlar va tuzatishlar kiritish;
- saylangan va tasdiqlangan shaxslar tarkibi to'g'risida o'z fikrini bildirish;
- majlis kun tartibidagi barcha materiallar va Kengashning boshqa hujjatlari bilan tanishish huquqiga ega.

Kengash a'zolari majburiyatlari:

- Kengash yig'ilishlarida qatnashish;
- kun tartibiga taklif va mulohazalar bildirish;
- Kengash tomonidan belgilangan qoidalarga rioya qilish;
- ovoz berishda qatnashish;
- yig'ilish boshlanishidan oldin, shuningdek, agar kerak bo'lsa, ovoz berish uchun ovoz berish byulletenlarini olishda ishtirok etish varaqasida ro'yxatdan o'tish.

3.10. Ilmiy kengash a'zosi bir necha bor kuzatilmagan sabablarga ko'ra majlislarda bo'lmagan taqdirda, Ilmiy kengash raisi ilmiy kengash a'zosining vakolatlarini muddatidan oldin bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilishga haqlidir.

4. ILMIY KENGASHNING VAZIFALARI

4.1 “UzTest” DM Kengashining asosiy vazifalari:

- mahsulotlarni va xizmatlarni sertifikatlashtirishni tashkil etish va uni o'tkazishda texnik reglamentlar, davlat standartlari va xalqaro standartlarni qo'llash, istemolchini sifatsiz, shu jumladan fuqorolarning hayoti, sog'ligi va mol-mulkiga xavf tug'diruvchi, atrof muhitga zarar yetkazuvchi o'zaro almashinuvchanlik va moslashuvchanlik talablarini o'lchash uslublari va yorliqlash qoidalari birligini ta'minlamaydigan mahsulotlardan ximoyalash bo'yicha o'z pozitsiya va ta'sirini bildirish;
- xalqaro bozorda mahsulotlarning raqobatbardoshligiga ko'maklashish;

- ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda xalqaro standartlar talablari asosida joriy etilgan menejment tizimlarini sertifikatlashtirish hamda xalqaro standartlar talablari asosida o'quv kursi, xalqaro miqyosida seminar va konferensiyalar tashkil etish;

- standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sinash masalalari bo'yicha Markazning kadrlar tarkibini doimiy tizimli tayyorgarligi va malakasini oshirish chorasini ta'minlash;

- eksportga mo'ljallangan maxsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarga standartlar, maxsulotni sertifikatlash, yorliqlash, qadoklash va boshqa parametrlar yuzasidan xalqaro va mamlakatlararo talablar bo'yicha maslaxat xizmatlarini ko'rsatish;

- ishlab chiqaruvchi korxonalarga ishlab chiqarilayotgan mahsulotni xorijiy bozorlarga kiritish bo'yicha zarur axborotlar olish uchun axborot-maslahat yordamini ko'rsatish;

- zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlar tayyorlash maqsadida "UzTest" DM hodimlari, sertifikatlashtirish idoralari (SI) va laboratoriyalari sa'y-harakatlarini birlashtirish;

- "UzTest" DM ning ta'lim, malaka oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy va ilmiy-tadqiqot faoliyatini muvofiqlashtirish;

- "UzTest" DM ning hozirgi va kelgusi faoliyatining yaxlitligini saqlash va ta'minlash uchun me'yoriy-huquqiy mexanizmni yaratish, shu jumladan o'quv va ilmiy faoliyat, mutaxassislarni sifatli qayta tayyorlash, moddiy resurslarni saqlash va ko'paytirish, "UzTest" DM da hodimlar huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish uchun sharoit yaratish.

- amaldagi qonunchilikka qarshi bo'lmagan boshqa vazifalar.

5. ILMIY KENGASHNING VAKOLATLARI

5.1. "UzTest" DM Kengashi - bu unga berilgan vakolatlar doirasida "UzTest" DM da o'zini o'zi boshqarishni ta'minlaydigan yuqori organ.

5.2. Kengashning yuklatilgan vazifa va funksiyalarini bajarish uchun "UzTest" DM quyidagi huquqlarga ega:

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlardan o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan axborotni talab qilish va belgilangan tartibda olish;

- mahsulotlarni va xizmatlarni sertifikatlashtirishni tashkil etish va uni o'tkazishda texnik reglamentlar, davlat standartlari va xalqaro standartlarni qo'llash, iste'molchini sifatsiz, shu jumladan fuqorolarning hayoti, sog'ligi va mol-mulkiga xavf tug'diruvchi, atrof muhitga zarar yetkazuvchi o'zaro almashinuvchanlik va moslashuvchanlik talablarini o'lchash uslublari va yorliqlash qoidalari birligini ta'minlamaydigan mahsulotlardan ximoyalash;

- Agentlikka standartlarga, metrologiya qoidalariga va majburiy sertifikatlashtirishga rioya etilishi ustidan davlat nazorati samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar kiritish;

- standartlashtirish, texnik jihatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash tizimlarini rivojlantirishning dolzarb va istiqbolli vazifalarini hal etish uchun tashkil etiladigan ishchi guruhlar yig'ilishlarida ishtirok etish;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert kengashlari va komissiyalari ishida ishtirok etish;

- standartlashtirish, texnik jihatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohasida kadrlarni malakasini oshirish bo'yicha dasturlar, o'quv qo'llanmalari,

ilmiy ishlar to'plamlari, ilmiy-amaliy konferensiyalar materiallari, uslubiy ko'rsatmalar, shuningdek qo'llanmalar tayyorlaydi, nashrga tavsiya etadi va nashr etadi;

- kadrlar malakasini oshirish bo'yicha o'z vakolatlari doirasida ko'rsatmalar, tadbirlar rejalari, grafiklar va boshqa ma'muriy hujjatlarni tasdiqlash;

- standartlashtirish, texnik jihatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohasida xalqaro loyiha va dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;

- noshirlik faoliyatini amalga oshirish, standartlashtirish, texnik jihatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohasidagi ilmiy-texnik axborotni tarqatish;

- standartlashtirish, texnik jihatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohasidagi mintaqaviy va xalqaro tashkilotlarning majlislari va ishchi kengashlarida ishtirok etish;

- standartlashtirish, texnik jihatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash masalalari bo'yicha ilmiy-amaliy anjumanlar, seminarlar, forumlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni o'tkazish;

- xalqaro sertifikatlashtirish tizimlariga qo'shilish, mahsulotlarni majburiy sertifikatlanadigan mahsulotlar ro'yxatiga kiritish bo'yicha takliflar tayyorlash va ularni Agentlikka kiritish;

- doktorlik (PhD, DSc) dissertatsiyalari mavzularini ko'rib chiqish, tasdiqlash, mustaqil tadqiqotchi va doktorantlarga ilmiy rahbarlar belgilash, ularning shaxsiy ish rejalarni tasdiqlash, mustaqil tadqiqot, doktorantlar va ularning ilmiy rahbarlari faoliyati monitoringi natijalarini muhokama qilish va shu asosda tegishli qarorlar qabul qilish;

- hodimlarni katta ilmiy hodim, professor ilmiy unvonlariga tavsiya etish bo'yicha ularning taqdimnomasini ko'rib chiqish, tavsiya etish;

- fundamental, amaliy loyihalar va innovatsion ishlanmalar, startaplar, xalqaro loyihalar mavzulari va loyihalarini ko'rib chiqish va ularni tanlovlarda ishtirok etish uchun tavsiya etish, moliyalashtiradigan loyihalarning bajarilishi bo'yicha hisobotlarni tinglash;

- "UzTest" DM dissertatsiyalar uchun yetakchi tashkilot sifatida belgilanganda ushbu dissertatsiyalarni ko'rib chiqish, tegishli xulosalar berish;

- "UzTest" DM, Agentlik Markaziy apparati va uning boshqa tizim tashkilotlari hodimlarini turli tanlovlar, stajirovkalarga yuborish, mukofotlarga tavsiya etish masalalari ko'rib chiqish va tavsiya etish.

6. ILMIY KENGASH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

6.1. Direktor Kengash faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi va uning majlislariida raislik qiladi.

6.2. Kengashning Nizomi belgilangan tartibda tasdiqlangandan keyin, Kengashning raisi Kengash o'tkazilish kunini va kun tartibini belgilaydi. Kengash o'tkaziladigan kun e'lonlar taxtasida rasmiy ravishda taqdim etiladi va Kengash a'zolariga ma'lum qilinadi.

6.3. Kengash ishi Kengash a'zolari bilan kelishilgan va Kengash raisi tomonidan tasdiqlangan "UzTest" DMning joriy yilga mo'ljallangan ish rejasi hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

6.4. Kengash ish rejasi har yili, yil boshida, Kengash a'zolarining takliflarini hisobga olgan holda tuziladi va Kengash raisi tomonidan tasdiqlanadi.

6.5. Reja Kengash raisi tomonidan tasdiqlangandan so'ng, Kengash a'zolari va Agentlikning mutasaddisi hamda tegishli faoliyat sohalari bo'yicha texnik qo'mitalar, ilmiy muassasalar va tashkilotlarga yetkaziladi. Yuborish ro'yxati Kengash raisi tomonidan belgilanadi.

6.6. Navbatdagi majlisning kun tartibi Kengashning Ilmiy kotibi tomonidan navbatdagi majlis boshlanishidan kamida 5 kun oldin Kengash a'zolariga va Kengash ishida ishtirok etuvchi mas'ul ijrochilarga yuboriladi.

6.7. Kengash a'zolari Ilmiy kotibga Kengashning ish rejasi bo'yicha o'z takliflarini taqdim etadilar.

6.8. Kengashning ish rejasiga muvofiq, Kengash a'zolari belgilangan muddatlarda ma'ruzalar, xulosalar, qarorlar loyihalarini tayyorlaydilar va ularning ijrosi to'g'risida Kengashning Ilmiy kotibiga axborot taqdim etadilar.

6.9. Kengash materiallarini tayyorlash mas'ul ijrochi hisoblangan va tegishli ravishda faoliyat sohasining ushbu yo'nalishini ifodalovchi bo'linma zimmasiga yuklanadi.

6.10. Mas'ul ijrochi har bir masala bo'yicha Ilmiy kotibga Kengash majlisidan oldin Kengash a'zolarining materiallari bilan oldindan tanishish maqsadida ma'lumotnoma va axborot materiallari, standartlar loyihalari, sertifikatlashtirish va menejment bo'yicha loyihalar va shu kabilarni, shuningdek, ushbu masala bo'yicha qaror loyihasini taqdim etadi.

6.11. Kengash bayonnomasida qayd etilgan va tasdiqlangan barcha kollegial qarorlar uchun Kengash javobgar bo'ladi.

6.12. Kengash Bayonnomasining aniq ijrochilar ko'rsatilgan bandlari bo'yicha ushbu ijrochilar javobgar bo'ladi.

6.13. Direktor o'z topshiriqlarini qabul qilingan qarorlar ijrosini hisobga olish, monitoring qilish va nazorat qilish uchun Kengash yig'ilishining yakunlari bo'yicha Ilmiy kotibga topshiradi.

6.14. Kengashning ilmiy kotibi Kengash qarorlarining amalga oshirilishi ustidan nazoratni tashkil etadi va bo'linmalar rahbarlari va mas'ul ijrochilar bilan birgalikda ularning bajarilishi to'g'risida axborot tayyorlaydi.

6.15. Kengash tarkibini yangilash va rotatsiya qilish har yili joriy yil oxirida har bir Kengash a'zosining faoliyatini baholash va olingan natijalarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

6.16. Kengash a'zosi ishdan bo'shatilgan taqdirda Kengashning navbatdagi majlisida uning tarkibiga Kengashning yangi a'zosini kiritish to'g'risida taklif kiritiladi.

6.17. Kengashning nizomiga "UzTest" DM faoliyatining dolzarb va istiqbolli yo'nalishlarini hisobga olgan holda zaruratga ko'ra qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

7. YIG'ILISHLARNI O'TKAZISH TARTIBI VA REGLAMENTI

7.1. Kengashning yig'ilishlari Bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

7.2. Kengash majlisi bayonnomasini Kengashning Ilmiy kotibi yuritadi va rasmiylashtiradi. Raqamlashtirish bo'yicha mutaxassis majlisning asosiy mazmunini

elektron uskunalar yordamida yozib olishi mumkin. Oshkor qilinmaydigan masalalar muhokama qilinayotgan hollarda (HDF materiallari va boshqa materiallar) elektron uskunalar yordamida yozib olish qat'iy taqiqlanadi.

7.3. Kengash majlisining bayonnomasi yig'ilish o'tkazilgan kundan boshlab 5 kundan kechiktirmay tuziladi. Bayonnomada majlis raisi, kengash kotibining bosh harflari va familiyalari, bayonnoma sanasi va raqami, yig'ilish joyi, yig'ilish kun tartibi, ma'ruzachilarga berilgan savollar, ularga javoblar, munozaralar va nutqlar ko'rsatiladi. qatnashgan Kengash a'zolari, ovozga qo'yilgan savollar, ovoz berish natijalari va yechimlar ko'rsatiladi.

7.4. Agar Kengash a'zolarida savollar tug'ilmasa, qarorlar va kun tartibining har bir bandi bo'yicha ovoz berish o'tkaziladi.

7.5. Kengash a'zolarida savollar bo'lsa, qo'shimcha muhokama o'tkaziladi va yakuniy qarorlar qabul qilinadi.

7.6. Kengash majlisini o'tkazish vaqtida reglament bo'yicha:

- kun tartibidagi har bir masala bo'yicha ma'ro'zalarga ko'pi bilan 10-12 daqiqa beriladi;
- har bir masala bo'yicha muhokama va munozaralarga ko'pi bilan 5-7 daqiqa;
- har bir masala bo'yicha chiqishlar 5 daqiqadan oshmasligi kerak.

7.7. Bayonnoma qarorlari va kun tartibining har bir bandi bo'yicha ovozlar sanab chiqiladi. Ushbu jarayonni Kengash raisi ilmiy kotib bilan birgalikda olib boradi.

8.8. Ovoz berishda ovozlar teng bo'lgan taqdirda Kengash raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

7.9. Kengashning ilmiy kotibi yaqin va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan kun tartibidagi hamda "UzTest" DM faoliyatining dolzarb yo'nalishlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish bo'yicha ovoz berish hamda takliflar kiritish huquqiga ega.

7.10. Ovoz berishdan oldin majlisda ovoz berishni (yashirin yoki ochiq) o'tkazish to'g'risidagi masala belgilanadi, uning tartib-taomilini Kengash a'zolari ochiq ovoz berish yo'li bilan kollegial hal qiladilar.

7.11. Agar Kengashda munozarali masalalar ko'rib chiqilsa va a'zolarining fikrlari bir-biriga qo'shilmasa, Kengash raisi yashirin ovoz berishni taklif qiladi. Tayyorlangan ovoz berish qutisiga Kengash a'zolari o'z ovozlarini "UzTest" DM muhri bosilgan tegishli namunadagi byulletenlarga kiritadilar (Kengash a'zolari byulletenga o'z fikrini yozadi - roziman yoki noroziman yoki betarafman).

7.12. Ovoz berish quyidagi prinsip asosida amalga oshiriladi:

- yoqlab;
- qarshi;
- betaraf.

7.13. Ovoz berish natijalari darhol e'lon qilinadi va Bayonnomaga kiritiladi.

7.14. Agar majlisda murakkab bo'lmagan masalalar va Kengash a'zolarining fikrlari munozaralarga sabab bo'lmasa Kengash raisi ochiq ovoz berishni taklif qiladi.

7.15. Ovoz berish quyidagi prinsip asosida amalga oshiriladi:

- yoqlab;
- qarshi;
- betaraf.

7.16. Ovoz berish natijalari darhol e'lon qilinadi va Bayonnomaga kiritiladi.

7.17. Kengashda Kengash a'zolarining uchdan ikki qismi qatnashsa, qaror qabul qilish huquqiga ega.

7.18. Kengash qarorlari, agar ushbu qarorlarni yoqlab Kengash a'zolarining yarmidan ortig'i ovoz bergan bo'lsa, qabul qilingan deb hisoblanadi.

7.19. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda, Kengash raisining ovozi hal qiluvchi bo'lib hisoblanadi.

7.20. Kengash a'zosi shaxssan ishtirok eta olmagan taqdirda, uning onlayn rejimda ishtirok etishiga yo'l qo'yiladi. Kengash raisi Raqamlashtirish bo'yicha mutaxassisga Zoom aloqa tizimi yoki boshqa aloqa tizimini onlayn rejimida tashkil etish masalasini Login va parolni "UzTest" DM guruhiga topshiradi.

7.21. Kengash majlislari bayonnoma qarorlari bilan rasmiylashtiriladi. Kengash qarori Kengash raisi tomonidan imzolanib, "UzTest" DM buyruq chiqarilgandan so'ng kuchga kiradi.

7.22. Kengash bayonnomasi tasdiqlangandan so'ng uning asl nusxalari (dastlabki ikki nusxasi) ga Kengashning barcha a'zolari o'z imzolarini qo'yadilar, shundan so'ng Kengash raisi tasdiqlaydi va uning imzosiga "UzTest" DM ning asosiy yumaloq gerbli muhri bosiladi.

7.23. Tasdiqlangan hujjatlarning nusxalari ma'lumot uchun Agentlikka beriladi.

7.24. Reglament bo'yicha yuqorida ko'rsatilgan barcha tartib-taomillar o'tkazilgandan so'ng Bayonnoma yuridik kuchga ega bo'ladi va barcha qarorlar ijro uchun qabul qilinadi.

7.25. Kengash qarorlarining bajarilishi to'g'risidagi hujjatlar Kengash bayonnomasida belgilangan muddatlarda Ilmiy kotibga yuboriladi.

7.26. Ilmiy kengash oyida kamida 2 marta o'tkaziladi. Agentlik rahbariyati va Kengash raisining muhim davlat masalalari va topshiriqlarini tezkor bajarish zaruriyati yuzaga kelgan taqdirda, kengashning shoshilinch yig'ilishi chaqirilishi mumkin.

7.27. Kengashning navbatdan tashqari majlisi navbatdagi majlislar kabi tartib-taomillar bo'yicha o'tkaziladi, kun tartibi, Bayonnoma loyihasi va boshqalar tayyorlanadi. Majlisni o'tkazish Kengash raisi va Ilmiy kotibi tomonidan tashkil etiladi.

8. ILMIY KENGASHNING HUJJATLARINI SAQLANISH SHARTLARI.

8.1. Kengash bayonnomasi ikki nusxada tuziladi va Kengash bayonnomasining asl nusxalari biri - Kengash raisida hamda ikkinchisi nusxasi - Kengash kotibida saqlanadi. Bayonnomaning elektron versiyasi "UzTest" DMning tegishli bo'linmalariga ijro etish uchun yuborilishi mumkin.

8.2. Kengash to'g'risidagi Nizom hamda Kengash bayonnomalari belgilangan tartibda 5 yildan kam bo'lmagan muddatda saqlanadi.

9. YAKUNIY QOIDALAR

9.1. Tegishli yig'ilishda qatnashgan Kengash a'zolarining ko'pchiligining qarori bilan mazkur Nizomga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritish yoki yangi tahrirda qabul qilish bo'yicha qaror qabul qilishi mumkin.

9.2. Ilmiy kengashning ushbu Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki ushbu Nizomni yangi tahrirda qabul qilish to'g'risidagi masala belgilangan tartibda hal etiladi.

10. ILMIY KENGASH FAOLIYATINI TASHKIL QILISH VA TUGATISH

10.1. "UzTest" DM Kengashini tashkil etish va tugatish direktorning buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

10.2. Kengash faoliyati davomida olingan moddiy boyliklar, jihozlar, uni tugatish paytida "UzTest" DM mulkiga o'tkaziladi.

И. Маногомбе


Догов. А


И. Газиев


Дир. Каттахинаев


А. Абдукаримов


А. Каримов
